

разных форм обучения, прозрачность образования, эффективность образовательной системы, развивать компетенентность педагогов, включая, административный состав образовательного учреждения.

Литература

1. Доклад о человеческом развитии 2019. UNDP. -New York: USA. 2019.
2. Бондарева В.В. Формирование деятельности педагогического коллектива на основе квалиметрического мониторинга. Тез. докл. Восьмого симпозиума «Квалиметрия человека и образования: методология и практика». Ч. 2 / Под ред. Н.А. Селезневой и А.И. Субетто. -М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 1999. – С. 140-144.
3. Международная стандартная классификация образования МСКО 2011. Институт Статистики ЮНЕСКО. –Montreal: 2013.
4. Кириллина Ю. Качество образования как комплексная проблема / Ю.Кириллина. // Высшее образование в России. 2006. № 10. - С. 45–47.
5. Sleeman D., Brown J. S. Intelligent Tutoring Systems. -New York: Academic Press, 1992.
6. Севрук А. И. Мониторинг информационного обеспечения качества образования. / А. И. Севрук; Перм. регион. ин-т пед. информац. технологий. – Пермь: Изд-во ПРИПИТ, 2001. –С.212.

РЕЗЮМЕ

Мақолада миллий таълим дастурларининг халқаро таълим стандарт классификациясига мувофиқ муҳокама қилинади, бу таълим тизими тўғрисидаги маълумотларни тизимлаштиришнинг асосий воситаси, МСКО даражалари тўғрисидаги маълумотларни таққослаш ва уларни халқаро даражада талқин қилишда ёрдам бериш учун фойдаланиладиган ўқув дастурлари ва тегишли малакалар.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается классификация национальных образовательных программ в соответствии с Международной стандартной классификацией образования (далее – МСКО) которые являются основным инструментом для систематизации информации по системе образования, образовательным программам и соответствующим квалификациям, применяемыми для сопоставления данных об уровнях МСКО и помощи в их интерпретации на международном уровне.

SUMMARY

The article discusses the classification of national educational programs in accordance with the International Standard Classification of Education (here in after – ISCED), which are the main tool for systematization of information on the education system, educational programs and relevant qualifications used to compare data on ISCE levels and assistance in their interpretation at the international level.

ZAMONAVIY BOSHQARUVDA RAHBAR PROFESSIONALIZMINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA

Q.Qadirov – *pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

J.S.Matnazarov – *magistrant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: rahbar, professionalism, bilim, intellekt, qobiliyat.

Ключевые слова: лидер, профессионализм, образование, интеллект, способность.

Key words: leader, professionalism, education, intelligence, ability.

Zamonaviy rahbarlarga xos boʻlgan professional va shaxsiy sifatlarini tarkib topirishda shaxsning xislat va fazilatlarini, uning tajribasi, mavjud bilim va malakasi hamda qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Professionalizmning boshqaruvga nisbatan qoʻllanishi esa, rahbar faoliyatini alohida professional soha sifatida tushunish hamda boshqaruvga oid vazifalarni becamu koʻst bajarishni nazarda tutadi.

“Boshqaruv professionalizmi” iborasi esa ilmiy kategoriya sifatida psixologiya fanida oʻz samarasini koʻrsatib kelayotgan faoliyat yondashuvi orqali tahlil etiladi. Boshqaruv professionalizmi tushunchasi oʻz koʻlamiga koʻra turli fan vakillari tomonidan oʻrganib kelinmoqda. Xususan, sotsiologiya, huquq, menejment fanlarida boshqaruv professionalizmi tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilish borasida sezilarli izlanishlar amalga oshirilgan. Bu mavzuni psixologik nuqtai nazardan oʻrganish bilan bir tomondan, ushbu fenomenning tabiatini yanada chuqurroq ilmiy izohlash imkoniyati yaratilsa, boshqa tomondan, uni modellastirish orqali bevosita rahbarlar taʼlimi sohasiga tatbiq etish mumkin boʻladi. Shunday qilib, boshqaruv professionalizmi aynan amaliyotga tatbiq etish nuqtayi nazaridan oʻrganishga loyiqdir.

Rahbar kadrlarning professional mahoratini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar Respublikamiz va chet ellarda turli sohalarida amalga oshirilmoqda. Albatta, bu borada menejment sohasidagi ilmiy izlanishlar yetakchi oʻrinda tursa-da, maxsus psixologik tadqiqotlarda ham ushbu masala yetarli darajada oʻz yechimini topgan. Respublikamiz olimlari tomonidan shu paytgacha olib borilgan qator izlanishlarda professionalizm mavzusi koʻproq pedagogik psixologiya sohasida, pedagog shaxsi va uning mahorati misolida tadqiq qilib kelinmoqda.

Rahbar oʻz faoliyati orqali boshqaruv maqsadiga bevosita shaklda erishadi, yaʼni u xodimlar orqali tashkilot rejasini amalga oshiradi. Bunday holat boshqaruv va ijroni aniq ajratish zaruratini qoʻyadi. Hatto shunday taʼkidlar

ham borki, boshqaruv ijro faoliyatidan qanchalik ozod boʻlsa, u shunchalik samarali boʻlib boradi. Boshqaruv xususiyatini bunday ikki qatlam doirasida tahlil etish zarurati profesionalizmni faoliyat kategoriyasi nuqtayi nazaridan qarash evaziga erishiladi. Rahbar oʻz qudrati va salohiyatini tashkilot maqsadiga butunlay safarbar etishi undan ichki bir qaror, barqarorlik va ishonchni talab qiladi. Bunday masʼuliyat, uning zimmasiga aksariyat hollarda inson shugʻullanadigan rasmiy faoliyati va biron rasmiy tizimda egallagan huquqiy maqom orqali yuklanadi. Bunday maqomni shaxsning shu sohaga rasman kirganligi va ushbu yoʻnalishda bundan buyon faoliyat yuritishini anglatgan holda endi uni «professional» deb atash uchun asos boʻladi.

I.Maxmudov proffesonallikni quyidagicha taʼriflaydi: «Professionallik nafaqat rasmiy maqom, balki inson mehnat qilayotgan soha, ixtisoslik boʻyicha zarur bilim va malakaga egalik hamdir»

Bunday bilim va malakaga egalik turli darajada boʻlishi, shunga koʻra, mutaxassisning professional salohiyatini bir nechta toifalarga ajratish mumkin. Gap boshqaruv haqida borar ekan, boshqaruv professionalizmini rahbarning oʻz jamoasini tashkilot maqsadi sari yoʻnaltirishda yuksak darajadagi bilim va malakalarga tayangan holda faoliyat olib borishi, deb taʼriflash mumkin.

Professionalizm soʻzi, yaʼni lotincha «professio» soʻzidan olingan boʻlib, uning old qoʻshimchasi boʻlmish «pro» - «oldinga, oldinda, sifatida» maʼnolarini anglatadi, «fiteor» - «eʼlon qilmoq, aniqlamoq, ochiq eʼtirof etmoq» degan maʼnolarni anglatadi. Bunda gap, «oʻzini, oʻz maqomini, mehnat turini boshqalarga rasman eʼlon qilish, ommaviy tarzda xabardor qilish, ochiq namoyish etish» haqida boryapti. Shu maʼnoda kasb, professio – maxsus tayyorgarlik va mehnat tajribasi asosida egallangan hamda maxsus nazariy bilimlar va amaliy malakaga ega boʻlgan insonning mehnat faoliyati turidir. Demak, professionallik – kasb sohibi boʻlish demakdir. Ushbu taʼrifda shunday maʼno aks etadiki, kasb doimo boshqalarga, atrofdagilarga

yo'nalganligi bilan xarakterlanadi.

Professionalizmga ta'rif berilar ekan, barcha soha mutaxassislari uchun umumiy bo'lgan quyidagi ta'rifga murojaat etish mumkin: Professionalizm - shaxsning integrallashgan sifati bo'lib, bunda kasb faoliyatiga oid vazifalarni yuksak saviyada bajarish malakalari kuzatiladi.

Pedagogika sohasidagi professional mukammallik qator tadqiqotlarda «pedagogik mahorat» iborasi bilan ifodalangani. Pedagogik mahorat mavzusidagi ko'pgina ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, «mahorat» so'zi «professionalizm» so'ziga sinonim tarzda ishlatiladi. Darhaqiqat, e'tibor berib qaralsa, mahorat so'zi «biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada o'rtirilgan ustalik, san'at; mohirlik», deb ta'riflanadi. Nazarimizda, «mahorat» so'zi ko'proq alohida shaxsga nisbatan ishlatiladi va hatto muayyan faoliyatning mahorat cho'qqisi deganda ko'proq konkret shaxsni nazarda tutamiz.

Professionalizm masalasi ustida ko'p yillik izlanishlar olib borgan N.V.Kuz'mina ham professional malakalarni namoyish etishda pedagogning shaxsiy sifatleri alohida ro'l o'ynashini ta'kidlab o'tadi hamda professionalizm ikki o'zaro bog'liq komponentdan iboratligini alohida ta'kidlaydi: «professionalizm sub'ekt faoliyati va shaxsning professional muhim sifatleri majmuyi sifatida pedagogik vazifalarni hal etishga yordam berishi yoki xalaqit berishi ham mumkin». Bu ta'rifda faoliyat va shaxs yondashuvlarini uyg'unlashtirish zarurligi qayd etib o'tiladi. Olimlardan A.A.Derkach va N.V.Kuz'mina «shaxs professionalizmi» tushunchasining mohiyatini ochib berar ekan, shaxsning professional muhim sifatleriga urg'u beradilar va bunday sifatlar qatoriga quyidagilarni kiritadilar: intellekt (tafakkur), ma'naviy (xulq-atvor), emotsional (hislar), irodaviy (o'z-o'zini idora etish qobiliyati), tashkilotchilik (faoliyat mexanizm qobiliyati)).

Rahbar shaxsga xos sifatlar deganda, boshqaruv faoliyatiga ta'sir etuvchi umumlashgan, barqaror psixologik xarakteristikalar tushuniladi. Bular psixologik jihatdan o'ta murakkab tuzilmalar bo'lib, quyidagi shaxsiy omillarga bog'liq: xarakter xislatlari, shaxs strukturasi, shaxs yo'nalishi, insonning hayotiy tajribasi, qobiliyat, faoliyat amalga oshuvchi sharoitlar tushuniladi. Rahbarning boshqaruv sohasida shakllanib borishi, professional sifatida yetilishi ma'lum jihatdan shaxs sotsializatsiyalashuvi jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi va hatto buni professional sotsializatsiya ham deb atash mumkin. Sotsializatsiya ikki tomonlama jarayon bo'lib, birinchidan, individ tomonidan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, ijtimoiy muhitga kirish orqali sotsial aloqalar tizimini o'zlashtirish nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, o'z faoliyati davomida sotsial aloqalarni yanada mukammallashtirish, yangi aloqalarni yaratish, deb tushuniladi.

Zamonaviy rahbarlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida iloji boricha shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'z e'tiqodi va qadriyatlarini hayoti davomida aniq ifodalash bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Axir, aynan ichki poklik, samimiylilik va inson tabiatining yaxlitligi o'zgaga ta'sir etuvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Rahbarlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish bilan bog'liq har qanday tadbir oxir-oqibatda rahbar shaxsi, uning boshqaruv mahoratini takomillashtirish, o'zgalarga ta'sir etish ko'lamini kuchaytirish maqsadini ko'zlaydi.

Xususan, boshqaruv faoliyati mehnatning boshqa shakllaridan mutlaqo farq qiladigan jarayondir. Va demak, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi subyekt ham o'ziga xos xislatlarga ega bo'lishi zarur. Boshqaruv faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari quyidagilar:

- boshqaruv ierarxiyasining turli bo'g'inlarida o'ziga xos bo'lgan faoliyat turlarining mavjudligi;

- faoliyatning ijodiy mazmunga egaligi. Bunday ijodiylik, asosan, ushbu faoliyat amalga oshuvchi sharoit bilan asoslanadi, ya'ni muammoga oid ma'lumotning kamligi va hatto mavjud axborotdagi ziddiyatlar, vaqt tanqisligi masalaga ijodiy yondashish talab qilinadi;

- boshqaruv vazifalarining aksariyat qismi prognostik tabiatga egaligi;

- faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishi kommunikatsiyalar yetakchi o'rinni egallaydi, shuning uchun rahbardan muloqot ko'nikmalari, boshqaruv tizimida esa, mukammal darajadagi kommunikatsiya o'rnatilishi talab qilinadi;

- qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha mas'uliyatning yuqoriligi tufayli kuchli psixik zo'riqishning mavjudligi. Boshqaruv faoliyatiga xos bunday xususiyatlar, o'z navbatida, rahbar shaxsga shunday talablar qo'yadiki, alohida sifatlariga ega bo'lgan insongina mazkur sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin.

Rahbarning professional sifatida shakllanishi professional identifikatsiya masalasini ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki har qanday professionalizm insonning kasbiy faoliyati bilan uyg'unlashuvi holatidir. Bu ta'rifga qo'shimcha ravishda yana bir jihatni qayd etish zarurki, busiz professionalizmi tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ham bo'lsa, kasb egasining professional soha vakillari bilan identifikatsiyasidir (real yoki ideal vakillar bilan). Bunday o'zini qiyoslash shakllangan hissiy aloqalarga asoslangan holda professional faoliyatning barqarorligi va shaxsning professional sifatida o'sishini ta'minlaydi. Peshqadam rahbarga xos fazilatlaridan biri – vazminlik va sabr bardoshlikdir. Rahbar hissiyotining muvozanatlashganligi uning ichki dunyosiga xos qarama-qarshi tuyg'ularning tug'yoniga yo'l qo'ymaslik va kayfiyatidagi sokinlikda ifodalanadi. Undan tashqari zaruriy xislatlardan yana biri muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o'z kundalik faoliyatining to'rtidan uch qismini turli-xil muloqotlarga sarflaydi.

Rahbar professionalizmining takomillashuvdagi asosiy holat texnika sohasining mukammallashuvidir. Texnik moslamalarning murakkablashib borishi, qimmatbaho uskunalar bilan ishlash va qolaversa, ularni boshqarish zarurati insonni mehnat muhitida ta'lim olishi zaruratini keltirib chiqardi. Bunday vaziyatda aniqlangan yangidan-yangi holatlar esa boshqaruv jarayonini olib boruvchi menejerlar, ish yurituvchilar va umuman rahbarlarga zarur malakalarni egallash talabini qo'ydi. Deyarli barcha tashkilotlarning zamonaviy axborot texnologiyalariga oid moslamalar bilan jihozlanganligi korxona personalini, rahbarlarni baholash va hatto masofaviy o'qitish bo'yicha qator imkoniyatlar va qulayliklar yaratmoqda. Bunday holat boshqaruv natijalari haqida qayta aloqa olish imkoniyatini oshirish bilan birga, rahbarning uzluksiz bilim olishi va nazariy xulosalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini oshiruvchi omildir. Zamonaviy rahbar hayotiga bunday texnik vositalarning kirib kelishi boshqaruv professionalizmini takomillashtirishni texnologizatsiyalash masalasiga yangicha mazmun bag'ishlaydi.

Shunday qilib yuqorida rahbar faoliyati davomida samaradorlikka erishish yo'lida amalga oshiradigan shaxs xususiyatlari bilan tanishib o'tdik. Bizga sir emaski hech bir inson shu tizimdagi xususiyatlar bilan dunyoga kelmaydi. Bularni hammasi insonga berilgan iste'dod, tabi'iy shuning bilan birga ijtimoiy-tarixiy yashash sharoitining natijasi hisoblanadi. Bunday xususiyatlarning rahbar faoliyatida ko'rinishi insondan qat'iy intizom va o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. Maxmudov I. "Boshqaruv professionalizmining psixologik mohiyati". -T.: 2009.
2. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. - Пер. С англ. -М.: "Дело", 2000.
3. Sharifxodjayev M., Abdullayev Ya. "Menejment". -T.: "O'qituvchi", 2002.
4. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. "Menejment asoslari". - T.: "O'qituvchi", 2003.

5. Исаев А.П. Управленческий профессионализм: основные понятия, процессы и механизмы. Учебное пособие. – Екатеринбург: 2015.

REZYUME

Ushbu maqola bugungi kunda yuqori darajadagi yetakchining boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

РЕЗЮМЕ

Эта статья предоставляет информацию о конкретных особенностях превосходного руководства сегодняшнего дня.

SUMMARY

This article provides information on the specific features of the excellent leadership for the present day situation.

BILIMLENDIRIW MÁKEMELERIN BASQARÍW PROCESINIŇ PEDAGOGIKALÍQ HÁM PSIXOLOGIALÍQ ÓZGESHELİKLERI

Q.Qadirov – *pedagogika ilimleriniñ doktori (DSc), docent*

R.Mambetnazarov – *magistrant*

Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: ta'lim muassasasi, boshqaruv jarayoni, samaradorlik, rahbarlik tizimi, ish uslubi, boshqarish uslubi, psixologik iqlim, bilim, muomala, o'zini tutish madaniyati.

Ключевые слова: образовательные учреждения, процесс управления, эффективность, система руководства, стиль работы, стиль управления, психологический климат, знание, отношение, культура поведения.

Key words: educational institution, management process, efficiency, leadership system, work style, management style, psychological climate, knowledge, behaviour, culture of behaviour.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Shavkat Mirziyoev Ózbekstan Konstituciyası qabıl etilgenliginiń 24 jıllıǵına arnalǵan máresimdegi oqıǵan bayanatında mámleketimizdiń búgingi kúndeǵı hám keleshekteǵı wazıypaları haqqında toqtalıp, tómendegilerdi aytıp ótdi: “Biz tálim hám tárbiya sistemasınıń barlıq buwınları iskerligin búgingi zaman talapları tiykarında jetilistiriwdi ózimizdiń birinshi dárejeli wazıypamız dep bilemiz” [1].

Hár qanday mákemeniń iskerligindegi nátiyjelilik, birinshi náwbette, jámaátteǵı xızmetkerlerdiń múnasábetleriniń qanshelli durıs shólkemlestirilgenligi yamasa shólkemlestirilmegenligine baylanıslı. Hár bir bashı pedagogikalıq sistemanı basqarar eken, bárinen burın, ondaǵı máseleler bul sistemadaǵı xızmetkerlerdiń pedagogikalıq-psixologiyalıq ózgesheliklerin biliw qábiyetine iye bolıwı kerek.

Basqarıw procesi nátiyjeliligi - bul arnawlı bir basqarıw procesi nátiyjesining salıstırmalı xarakteristikası bolıp, ol basqarıw obekti hám basqarıw iskerliginiń muǵdarlıq hám sapa kórsetkishlerine iye bolǵan túrli kórsetkishlerinde sawlelenedi.

Bilimlendiriw mákemeleri basshıları óz iskerligi dawamında tómendegi basqarıw túrlerinen paydalanadı: maqsetti belgilew, maǵlıwmatlardı jıynaw hám qayta islew, basqarıw qararların qabıllaw, joybarlaw, shólkemlestiriw, qadaǵalaw hám talqılaw.

Bilimlendiriw mákemeleri basshısı ózine júkletilgen wazıypalardı orınlaw barısında tómendegi obektlerge tikkeley tásir kórsetedi: bilimlendiriw procesi qatnasıwshıları (orınbasarlar, oqıtıwshılar, oqıwshılar, texnikalıq xızmetkerler, ata-analar hám t.b.), processler (tálim, tárbiyalıq), materiallıq-texnikalıq qurallar.

Joqarıda aytqanımsızday, nátiyjelilik túsinigi basqarıwǵa kóplegen tartıwǵa sebep bolıp keledi. Sebebi túrli tarawlarda nátiyjelilik tarawdıń jeke kórsetkishlerinen kelip shıǵıp anıqlanadı. Biraq tálim sisteması sociallıq tarawǵa tiyisli sistema bolǵanlıǵı ushın barlıq nátiyjelardi anıq kórsetkishler menen bahalaw múmkinshiligi bolmaydı. Kóp izertlewshilerdiń nátiyjelilik túsinigin táriyplewde «sıpat» túsinigine itibar qaratadı.

Buǵan baylanıslı Ózbekstanlı izertlewshilerden Sh.Qurbonov hám E.Seytxalilovlar tómendegi pikirlerdi bildiripedi: «Sıpat - bul qanday da waqıt ishinde alıńǵan nátiyjelardiń paydalılıǵı hám onıń menen baylanıslı ğárezetler ortasındaǵı koefficientti kórsetiwshi iskerlik ózgesheligi bolıp esaplanadı» [2]. Sonıń menen birge, bul izertlewshilerdiń pikirinshe, bir bilimlendiriw mákemesiniń basqa bilimlendiriw mákemesine salıstırǵanda joqarı nátiyjelerge erisiwi, bul bilimlendiriw mákemesinde mudamı basqarıw sapası joqarılaw bolıwınan dárek bermeydi. Mısalı, bilimlendiriw mákemesi jaqsı materiallıq bazaǵa iye bolsa, qárezet penen támiynlewdiń qosımsha

dárekleri esabına xızmetkerlerge basqa bilimlendiriw mákemelerine salıstırǵanda joqarı miynet haqı tólese, bul bilimlendiriw mákemesinde tálim-tarbiya sapası joqarı bolıwın támiyinlewı múmkin. Lekin másele hár bir bilimlendiriw mákemesi ózinde bar múmkinshiliklerden qanshelli dárejede paydalanıwına baylanıslı.

Bilimlendiriw mákemeleri basqarıw iskerligi nátiyjeliligin bahalaw boyınsha hár qıylı kózqaraslar hám usıllar bar. Yaǵnıy, bilimlendiriw mákemeleri basqarıw iskerligi nátiyjeliligin túrli kórsetkishler arqalı bahalaydı. Bir tárepten, bilimlendiriw mákemeleriniń basqarıw iskerligi nátiyjeliligin bahalaw tek basqarıwǵa tiyisli kórsetkishler menen ámelge asırılwı múmkin, yaǵnıy, joybarlaw, shólkemlestiriw, qadaǵalaw, tártipke salıw, basqarıw ekinshi tárepten, basqarıw nátiyjeliligi bilimlendiriw mákemesindeǵı pedagogikalıq processlerdiń ózgeris dinamikası, resurslarınń nátiyjelikligi, ótkerilip atırǵan reformalardıń hár bir shaxs ushın tásir dárejesine baylanıslı.

A.S.Krasikov «Bilimlendiriw mákemesi basshısınıń miynet nátiyjeliligin bahalaw - bul joqarı turıwshı organlar tárepten ózine bo'ysınıwshı mákemeniń joqarı kórsetkishlerge jetiwin támiyinlew ushın qollanılatawın qurallardıń birewi dep kórsetedi. Ol, sonıń menen birge, bilimlendiriw mákemeleri basqarıw iskerligi nátiyjeliligin bahalaw ushın joqarı shólkem basshıları nátiyjelardiń qanday dárejesi belgilengen talaplarǵa muwapıqlıǵın anıqlawı kerek ekenligin de bildiredi» [3].

Joqarıda keltirilgen pikirler hám kózqaraslardan kelip shıǵıp, bilimlendiriw mákemeleriniń basqarıw iskerligi nátiyjeliligin bahalaw - bul bilimlendiriw mákemelerinde ámelde bolǵan resurslar hám qurallardan qay dárejede paydalanıwı, bilim alıwshılardıń jámiyet ağzası sıpatında qay dárejede qalıplıqlıqlıǵı hám mámlekettiń rawajlanıwına úles qosa alatuǵın bilim hám kónlikpelerdi qay dárejede iyelegenligin úyreniwshi qural esaplanadı degen juwmaqqa keliw múmkin.

Basqarıw procesi nátiyjeliligin bahalawda muǵdar hám sıpat tárepten bahalanatuǵın kórsetkishlerden paydalanıladı. Basqarıw apparatınıń sıpatı, puqtalıǵı, operativligi, isenimlilik sonday kórsetkishler qatarına kirgiziw múmkin. Mısalı, joqarı oqıw orınları oqıw bóliminiń jumsları avtomatlastırılǵanda professor-oqıtıwshılardıń sabaq júklemelerin bólistiriw, oqıw kestesi, sabaq kestesi dúziw, qadaǵalawlardı ótkeriw múddetlerin belgilew, studentlerdiń ózlestiriw nátiyjelardin qadaǵalaw hám analiz qılıw ańsatlasadı. Sonıń menen birge, bunda basqarıw apparatınıń sıpatı, puqtalıq, operativlik, iykemlesiw, isenimlilik kórsetkishleri de jaqsılanadı.

Sonıń menen birge bilimlendiriw mákemelerindegi basqarıw procesi nátiyjeliligine tásir etiwshi faktorlarǵa toqtalıp ótemiz. Tiykarınan basqarıw procesi nátiyjeliligi